



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 25 - yanvar

VI-53-23-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqiligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori, shu bo'yicha Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 189/31-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashining  
LIII sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining 2021-yil 23-apreldagi "Mahalliy budjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 189/31-sonli qaroridagi namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni

moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar ya‘ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar va tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. 2021-yilda o‘tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko‘ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini tuman hokimligi tashabbusli budjet jamg‘armasiga qayta tiklash miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (J.Narziyev) hamda tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (E.Niyazov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini tuman hokimligi tashabbusli budjet jamg‘armasiga belgilangan tartibda qayta tiklash va tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (A.Jabbarov)ga tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq budjet” axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va keyingi har chorak yakunlariga ko‘ra, har chorakning birinchi oyi 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Rajabov), Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



N.Mamadiyarova

Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining  
2022 yil 25 yanvardagi  
VI-53-23-7-93-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha**

**MA'LUMOT**

T/P	Taklif ID raqami	Tuman (shahar)	Taklifning dastlabki qiymati	Taklif mazmuni	Ovoz soni	Ochilgan xisobraqam	Yo'naltirilgan mablag'	Loyiha smeta hujjatlariga asosan aniqlangan ma'lumotlar	Kassa xarajati		Bajarilgan ishlar
1	1070300002	Bulung'ur tumani	400 000 000	Bulung'ur tumanidagi istirohat bog'ida joylashgan yoshlar kutubxonasini joriy ta'mirlash va oldini ko'kalamzorlashtirish ishlari	47	401722860182067013990018002	400 000 000	0	0		Rad etilgan
2	1070300016	Bulung'ur tumani	250 000 000	Bulung'ur tuman Nebo'sa MFY ichki yo'llarini ta'mirlash. Ichki yo'llarga tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish	4	401722860182067065200110005	250 000 000	0	0		27.12.2021 yildagi VI-50-111-7-93-K/21 sonli Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining qarori asosida mablag' ajratilgan
3	1070300035	Bulung'ur tumani	990 000 000	Saxovat mahallasida optik tolali internet va mobil aloqa antennalarini o'rnatish	3	401722860182067013990018004	990 000 000	0	0		27.12.2021 yildagi VI-50-111-7-93-K/21 sonli Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining qarori asosida mablag' ajratilgan
4	1070300122	Bulung'ur tumani	1 000 000 000	Bulungur shahrida tabiiy gaz va elektr energiyasi muammolarini bartaraf qilish.	2	401722860182067013990018005	1 000 000 000	0	0		27.12.2021 yildagi VI-50-111-7-93-K/21 sonli Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining qarori asosida mablag' ajratilgan
5	1070300123	Bulung'ur tumani	599 999 997	Bulung'ur tumani, Saxovat mahallasi, Mextar qishlog'ida "Axborot texnologiyalari va robototexnika" markazini ochish	3	401722860182067013990018006	599 999 997	0	0		27.12.2021 yildagi VI-50-111-7-93-K/21 sonli Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining qarori asosida mablag' ajratilgan
6	1070300021	Bulung'ur tumani	200 000 000	Yangiqo'rg'on MFY ichki ko'chasini asfalt yotqizish ta'mirlash	60	401722860182067065200110004	200 000 000	185 437 696	185 437 696	14 562 304	Asfalt yotqizish ishlari to'liq bajarilgan
7	1070300025	Bulung'ur tumani	890 000 000	Bulung'ur tumani Bulung'ur ariq mahallasi Jomonjar qishlog'ida yo'llarini asfalt qilish	466	401722860182067065200110001	890 000 000	288 352 266	288 352 266	601 647 734	Asfalt yotqizish ishlari to'liq bajarilgan
8	1070300001	Булунгурский район	800 000 000	Tumandagi istirohat bog'i ta'mirlash	58	401722860182067013990018001	800 000 000	772 476 634	751 967 388	48 032 612	Istirohat bog'i ta'mirlangan
9	1070300064	Булунгурский район	200 000 000	Bulungur Kichik Kildon Dehqonobod qishlog'ini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash	36	401722860182067013990018003	200 000 000	0	0	200 000 000	Qaytadan e'longa qo'yilgan
10	1070300026	Bulung'ur tumani	650 000 000	Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Bulung'ur ariq mahallasi Jomonjar qishlog'i (do'ngi ovul qishlog'i)ga olib boruvchi ichki yo'lni asfalt qilish.	322	401722860182067065200110002	650 000 000	317 454 228	317 454 228	332 545 772	Ichki yo'llarni asfalt qilish ishlari bajarilgan
11	1070300027	Bulung'ur tumani	220 000 000	Samarqand viloyati Bulung'ur tumani Bulung'ur ariq mahallasi Jomonjar qishlog'idagi Do'ngi ovulgacha bo'lgan (Hazrat bobo uyigacha) yo'lni ikki chetiga tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish	100	401722860182067065200110003	220 000 000	207 000 000	207 000 000	13 000 000	Tungi yoritish chiroqlari to'liq o'rnatilgan

Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining  
2022 yil 25 yanvardagi  
VI-53-23-7-93-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**Tuman hokimligi Moliya bo'limining 2022-yil fevral oyida bo'lib o'tadigan "Ochiq budget" jarayonida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisob varag'iga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori bo'yicha taklifi**

<b>"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'larini shakllantirish manbalari</b>	<b>Summa (mln.so'm)</b>
Yil boshiga qoldiq	1317,3
Tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	4295,2
2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'larining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	1563,0
Bajarilgan ishlardan iqtisod qilingan mablag'lar	1376,6
<b>Jami</b>	<b>8552,1</b>